


BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **3,2** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



157

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 688

Ishlab chiqarish sanoati

19

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

106

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 970 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 102,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,3%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 112,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 90,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 123,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,2** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




2,2 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,6 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni







Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

778



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



410

yashash bo'yicha xizmatlar



2 079

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 489 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9% ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 106,7% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,5%), yashash bo'yicha xizmatlarning – 107,9% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,5%) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)






Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 3 746 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 336 taga yoki 109,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 400 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 258 taga yoki 108,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 320 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 295 taga yoki 52,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 383 tani tashkil etib, ulardan 376 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 52 taga yoki 116,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- avgust oylarida viloyatimizda 31 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- avgust oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	128	241	286	324	376
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5	20	20	30	32
Sanoat	72	106	123	132	141
Qurilish	7	22	28	33	31
Savdo	19	48	60	72	101
Tashish va saqlash	1	5	6	5	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10	18	21	23	26
Axborot va aloqa	-	1	1	1	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	6	7	7
Boshqa turlar	12	17	21	22	25

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Viloyat bo'yicha	376	212	164
Buxoro shahar	198	97	101
Kogon shahar	16	13	3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	8	2	6
Buxoro	27	21	6
Vobkent	5	4	1
G'ijduvon	13	8	5
Kogon	29	20	9
Qorako'l	10	7	3
Qorovulbozor	11	5	6
Peshku	21	9	12
Romitan	15	10	5
Jondor	13	9	4
Shofirkon	10	7	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 198 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 52,7 %), Kogon tumani 29 ta (7,7 %), Peshku tumani 21 tani (5,6 %), Kogon shahar 16 ta (4,3 %), Buxoro tumani 27 ta (7,2 %), hamda Jondor tumanlarida 13 tani (3,5 %) tashkil etadi.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar jami 34 938 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (27,7 %), G'ijduvon (11,0 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,8 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (6,0 %), Kogon (5,4 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,3 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,7 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2022-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar jami 3 081 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (23,8 %), G'ijduvon (10,7 %), Buxoro (8,6 %), Romitan (9,7 %), Peshku (4,4 %), Kogon (7,4 %), Jondor (8,4 %), Vobkent (6,0 %), Shofirkon (5,8 %), Qorako'l (5,6 %), Olot (3,8 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumanlari va Kogon shahar (3,5 %) ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar jami 29 121 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,4 %), G'ijduvon (10,6 %), Romitan (8,8 %), Buxoro (7,9 %), Jondor (7,1 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,6 %), Vobkent (5,4 %), Qorako'l (5,1 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.: (65) 223-83-20